

**OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI FANINI
O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA**

Norquziyeva M.Sh

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Abdusalomov Sh

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada ta'lismiz tizimini isloh qilish va takomillashtirish, kasbiy pedagogik tayyorgarlik va uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi sharoitlarga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablar, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda mazmuniga nisbatan minimum talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi yoritiladi.

Калит сўзлар: axborot texnologiyalari, o'quv jarayoni, pedagog, talim, texnologiya, internet, kompyuter.

Аннотация: В статье описаны общие требования к реформированию и совершенствованию системы образования, профессиональной педагогической подготовки и условий, способствующих ее реализации, порядок разработки и утверждения минимальных требований к уровню и содержанию профессиональной подготовки выпускников.

Ключевые слова: информационные технологии, учебный процесс, педагог, образование, технологии, Интернет, компьютер.

Annotation. The article describes the general requirements for reforming and improving the education system, professional pedagogical training and the conditions conducive to its implementation, the procedure for developing and approving the minimum requirements for the level and content of professional training of graduates.

Keywords: information technology, educational process, pedagogue, education, technology, internet, computer.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'limga tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'limga), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'limga), boshlang'ich professional ta'limga (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'limga) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega[10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sod Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida Respublikaning 367 ta umumta'lim maktabining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni "o'quv-laboratoriya jihozlari va boshqa inventarlar bilan ta'minlash" orqali "talabalarning ta'lim olishlari va o'qituvchilarning faoliyat yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish"ga erishish zarur vazifa sifatida belgilandi.

Dasturning bosh maqsadi ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida oliy ta'lim professor - o'qituvchilari zimmasiga tegishli o'quv fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta'lim jarayoniga innovatsiya va ta'lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda .

Biologiya o'qitish metodikasi ta'limi yo'nalishi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni malaka talablari, o'quv reja, namunaviy o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar hamda tavsiyanomalarda o'z ifodasini topgan. Malaka talablari ta'limning zarur va yetarli darajasi hamda o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilab beradi. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni malaka talablari belgilab beradi. Shuningdek, Malaka talablari – nazorat vositasi sifatida ta'lim muassasasining tayyorlov yo'nalishlari sharoitlarini belgilab beruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Malaka talablarining joriy etilishi natijasida Davlat buyurtmachi sifatida ta'lim muassasalari oldiga vazifa qo'yadi. Ta'lim muassasasi esa ana shu vazifalardan kelib chiqqan holda, qanday bilim, ko'nikma va malakalarni berishi lozimligini va uni qanday amalga oshirish chora-tadbirlarini bosqichma-bosqich belgilab oladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim mazmunini ifodalovchi Malaka talablari quyidagilarni belgilab bergen(1.1.1-rasm):

Kasbiy pedagogik tayyorgarlik va uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi sharoitlarga nisbatan qo'yiladigan umumiyl talablar

Talabaning o'quv majburiyatlari va ularning hajmi

Kasbiy pedagogik tayyorgarlik mazmunini aniqlashda ta'lim muassasasining akademik erkinligi

Oliy kasbiy pedagogik tayyorgarlik yo'nalishlari (mutaxassisliklar) ro'yxatiga qo'yiladigan umumiyl talablar


Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda mazmuniga nisbatan minimum talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartib

Malaka talablariga amal qilinishi yuzasidan davlat nazoratini olib borish qoidalari

1.1.1-rasm. Malaka talablarining asosiy qoidalari.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lif samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lif jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lif muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ularagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lif tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Shu o'rinda, o'qitishda zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanishning zaruriy shartlarini keltirib o'tamiz(1.1.2-rasm):



1.1.2-rasm. Zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanishning zaruriy shartlari

Bunday ta'sirlar bugungi kun darslarini zamon talabi darajasida o'tishni talab qiladi.

Biologiya o'qitish metodikasi shu jumladan umurtqali hayvonlar zoologiyasining turli masalalari bo'yicha S.X.Sulliyeva, Q.G'.Zokirov [60,72-b.], J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov [78,25-b.], Z.Boyxurazov, S.B.Qurbanov, H.U.Mamadaminov [6,195-198b.], O.Mavlonov, N.Toshmatov [35,198b.] kabi tadqiqotchilar mehnat qilganlar.

"Biologiya o'qitish metodikasi" jumladan, umurtqali hayvonlar zoologiyasi adabiyotlarida ta'lifning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talabaning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishslash

samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iborat.

Pedagogik ta'lif (pedagogika) jurnalida o'qitishning interfaol metodlari ta'lif oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lishlari, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'lishlari, darslarda o'qituvchining o'rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib kelishligi, talabalar bilimlarini nazorat qilishda axborot texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara berish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan [65,76-83].

S.X.Sulliyeva va Q.G'.Zokirovlarning "Biologiya o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikma va malakalarni egallashi, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi haqida . Boshqacha aytganda, ta'lif mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishga doir ma'lumotlar va fikr mulohazalar keltirilgan[61,72b.].

J.O.Tolipova va A.T.G'ofurovlarning "Biologiya o'qitish metodikasi" nomli darsligida biologik ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari, o'qitish maqsadlari, o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish masalalari, ta'lif-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, biologik talim mazmuni , vositalari, metodlari va shakllarining uzviy bog'liqligi, biologiyani o'qitishda kasbga yo'naltirish, o'qitish vositalari va metodlari, o'qitish shakllari tog'risida to'liq ma'lumotlar o'z aksini topgan[70,25-128b].

J.O.Tolipova A.T.G'ofuruvlarning "Biologiya ta'lifi texnologiyalari" darsligida har bir mavzuga oid ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish uchun zarur bo'lgan «Talabaning o'z-o'zini nazorat qilishiga mo'ljallangan modul dasturlari», biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, biologik ta'lifda differensiallashtirish va individuallashtirish texnologiyalari, didaktik o'yinli texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, muammoli ta'lif texnologiyasi, modulli ta'lif texnologiyalari, biologiyani o'qitishda loyihalash texnologiyasi, biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida ma'lumotlar yoritilgan[72,126-b].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / "Xalq ta'lifi" jurnali, 2006, № 6. - b. - 25-28.
2. Norquziyeva M.SH. " Umurtqalilar zoologiyasi fani mazmuni va o'qitishning mavjud holati. " Journal of Natural science. 2021. 234-239 b.
3. Norquziyeva M.SH. " Umurtqalilar zoologiyasi faniga doir materiallarni tanlash usullari" Journal of Natural science.2021. 216-218 b.

4. Azizzxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003.
5. Bahriyev A., Bahrieyva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / “Xalq ta'limi” jurnali, 2006, b. - 25-28.